

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2011-2012-O‘QUV YILIDA UMUMIY
O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARINING
5-6 SINF O‘QUVCHILARI UCHUN
MATEMATIKA, ONA TILI, RUS TILI,
ADABIYOT, BOTANIKA, TARIX,
FANLARIDAN BOSQICHLI NAZORAT
IMTIHON MATERIALLARI VA METODIK
TAVSIYALAR TO‘PLAMI**

**G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2012**

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika Ta'lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon materiallariga 15–20% hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

TUZUVCHILAR:

**5-SINF
MATEMATIKA**

L.N. Ten – Respublika ta'lim markazi matematika fani metodisti

RUS TILI

U. Yaminova – RTM rus tili fani bosh metodisti

ADABIYOT

D. Nuriddinova – RTM filologiya fanlari bo'limi bosh metodisti

**6-SINF
ONA TILI**

G.Ziyodillayeva – RTM bosh metodisti

BOTANIKA

I.Safarboyev – RTM biologiya fani metodisti

B.Rahimova – Toshkent shahar 105-maktab biologiya fani o'qituvchisi

TARIX

A.Zamonov – RTM tarix fani metodisti

**Nashr uchun mas'ul
N. Turdiyev**

Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish ta'qiqlanadi.

MATEMATIKA

O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinflarida matematika fanidan bosqichli nazorat imtihon yozma ish shaklida, tavsiya etilgan topshiriq variantlari asosida o‘tkaziladi.

Bosqichli nazorat imtihoni uchun matematikadan taqdim etilgan ishlar ikki variantda berilgan. Mazkur topshiriqlar 5-sinfda o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish uchun xizmat qiladi.

Bosqichli nazorat imtihoniga 2 astronomik soat ajratiladi.

Matematika fani chuqurlashtirib o‘tiladigan maktab (sinf) ma’muriyati maktab matematika o‘qituvchilari metodik birlashmasi qarori bilan 5-sinf o‘quv dasturiga mos keladigan bittadan qo‘shimcha topshiriq kiritishlari lozim. Shuning uchun topshiriq yechimlarini izohlab yozishlariga qo‘shimcha (30 daqiqa) vaqt beriladi.

Imtihon boshlanishidan oldin imtihon komissiyasining raisi 5 ta muhrlangan konvertlarni stol ustiga qo‘yadi.

Sinf o‘qituvchilaridan biri ushbu konvertlardan bittasini tanlaydi konvert muhri buzilmaganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng sinf o‘quvchilari oldida konvertni ochadi va 2 variantdan iborat topshiriqning raqamini e‘lon qiladi.

O‘qituvchi doskada topshiriqning ikkala variantini yozadi va chap qatorda o‘tirdan o‘quvchilar 1-variantni, o‘ng qatordagi o‘quvchilar 2-variantni yechishlarini tushuntiradi.

So‘ng o‘qituvchi har bir variant topshiriqlarini tushuntirib, yozma ishni yozishga qo‘yilgan talablarni aytib o‘tadi.

Yozma ishga ajratilgan vaqt e‘lon qilinib, doskada imtihonni boshlanish va tugash vaqti yozib qo‘yiladi.

O‘quvchilarning yozma ishlari 5 ballik baholash tizimi asosida baholanadi.

Bosqichli nazoratda o‘quvchilarning matematikadan yozma ishlarini baholash mezonlari

№	Yechimning holati	Ball
1	Har qanday to‘g‘ri yechim uchun; mantiqiy fikrlash va yechimni asoslashda hatoga yo‘l qo‘yilmasa; javobga mos chizma to‘g‘ri bajarilsa, hamda yozma ishga qo‘yilgan barcha talablarga mos kelsa.	5

№	Yechimning to'g'riligi (noto'g'riligi)	Ball
2	Har qanday to'g'ri yechim uchun, lekin hisoblashdagi kamchiliklar va 1-2 ta juziy hatolar uchun.	4
3	Topshiriqni bajarishda qo'pol xatoliklar va hisoblashdagi kamchiliklarga yo'l qo'yganligi, javobga to'g'ri erishilmaganligi uchun.	3
4	O'quvchining bajargan ishida bo'shliqlar juda ko'p bo'lgani sababli to'g'ri lavobga erishilmagani, lekin yechimda to'g'ri goya borligi ichun.	2
5	Matematika nuqtai nazardan yechish boshlangan, lekin hisoblashda qo'pol xatolarga yo'l qo'yish natijasida noto'g'ri javob hosil qilingani va yechish izohlanmagani uchun.	1

I TOPSHIRIQ

1-VARIANT

1. Birlik kesmasi daftar katakchasining uzunligiga teng bo'lgan koordinata nurida $A(2)$, $B(6)$, $C(8)$, $D(11)$ nuqtalarni belgilang. Shu o'qning o'zida koordinatasi natural son bo'lib 11 dan katta 13 dan kichik bo'lgan X nuqtani belgilang.

2. Tenglamani yeching: a) $x - 1 \frac{5}{7} = 2 \frac{1}{7}$; b) $\left(12 \frac{5}{13} + y\right) - 9 \frac{9}{13} = 7 \frac{7}{13}$

3. Poezd 3 soatda 200 km yo'l bosdi. Birinchi soatda butun yo'lning 35% ini, ikkinchi soatda esa qolgan yo'lning 50% ini bosib o'tdi. Poezd uchinchi soatda necha km yo'l bosgan?

4. Uzunligi 0,8 m, eni 0,6 m va balandligi 0,45 m bo'lgan akvariumga suv quyildi. Suvning satni arvariumning yuqori qirrasidan 0,05 m past. Akvariumdagi suv hajmini toping.

5. Ifodaning qiymatini toping: $23 \cdot 8^2 - 15 \cdot 3^3 + 1734 : 17$

2-VARIANT

1. Birlik kesmasi daftar katakchasining uzunligiga teng bo'lgan koordinata nurida $C(4)$, $D(6)$, $E(8)$, $F(11)$ nuqtalarni belgilang. Shu nurning o'zida koordinatasi natural son bo'lib 11 dan katta, lekin 13 dan kichik bo'lgan M nuqtani belgilang.

2. Tenglamani yeching: a) $y - 2 \frac{1}{5} = 5 \frac{2}{5}$; b) $\left(x - 3 \frac{13}{21}\right) + 2 \frac{10}{21} = 7 \frac{2}{21}$.

3. Uch kunlik velopoyga masofasining uzunligi 480 km. Birinchi kuni velopoygachilar butun masofaning 25% ni, ikkinchi kuni qolgan masofaning 55% ni bosib o'tdilar. Velopoygachilar uchinchi kuni qancha masofani bosib o'tdilar?

4. Uzunligi 0,75 m, eni 0,4 m va balandligi 0,48 m bo'lgan akvariumga uning yuqori sathidan 0,08 m past qilib suv quyildi. Akvariumdagi suvning hajmini toping.

5. Ifodaning qiymatini toping: $5 \cdot 11^3 - 4 \cdot (76 + 13^2 \cdot 5)$.

II TOPSHIRIQ

1-VARIANT

1. Birlik kesmasi daftar katakchasining uzunligiga teng bo'lgan koordinata nurida $M(13)$, $N(9)$, $D(6)$, $K(1)$ nuqtalarni belgilang. Shu nurning o'zida koordinatasi natural son bo'lib 12 dan kichik, lekin 10 dan katta bo'lgan X nuqtani belgilang.

2. Tenglamani yeching: a) $3\frac{8}{9} - x = 1\frac{5}{9}$; b) $\left(y - 8\frac{12}{19}\right) + 1\frac{7}{19} = 6\frac{2}{19}$.

3. Maydoni 23,4 gektar bo'lgan yerning har gektaridan 5,2 sentnerdan, maydoni 19,5 gektar yerning har gektaridan 4,8 sentnerdan va maydoni 15,6 gektar yerning har gektaridan esa 5,4 sentnerdan bug'doy hosil olingi. Uchchala yer maydonining har gektaridan olingan o'rtacha hosildorlikni toping.

4. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydoning uzunligi 640 m, eni esa uzunligidan 50 m kichik. Yer maydonining yuzini toping va uni gektarlarda ifodalang.

5. Ifodaning qiymatini toping: $(10^2 + 11^2 + 12^2) : 73 + 895$

2-VARIANT

1. Birlik kesmasi daftar katakchasining uzunligiga teng bo'lgan koordinata nurida $M(3)$, $P(5)$, $C(7)$, $N(10)$ nuqtalarni belgilang. Shu nurning o'zida koordinatasi natural son bo'lib 10 dan kichik, lekin 8 dan katta bo'lgan Y nuqtani belgilang.

2. Tenglamani yeching: a) $3\frac{8}{9} - y = 2\frac{7}{9}$; b) $\left(x + 3\frac{12}{17}\right) - 8\frac{9}{17} = 4\frac{10}{17}$.

3. Maydoni 26,4 gektar bo'lgan yerning har gektaridan 6,6 sentnerdan, maydoni 30,8 gektar bo'lgan yerning har gektaridan 6,3 sentnerdan va 22 gektar yerning har gektaridan 7,2 sentnerdan arpa hosili olindi. Uchchala yer maydonidan olingan arpaning o'rtacha hosildorligini toping.

4. To'g'ri to'rtburchak shakldagi yer uzunligi 320 m, va u enidon 70 m katta. Yer maydonining yuzini toping va gektarlarda ifodalang.

5. Ifodaning qiymatini toping: $2555 : (13^2 + 14^2) + 35$.

III TOPSHIRIQ

1-VARIANT

1. Birlik kesma uzunligini uchun daftar ikkita katakchasining uzunligi deb olib son nurini chizing. Shu nurda 3, 11, 15, 7 sonlarga mos nuqtalarni belgilang.
2. Tenglamani yeching: a) $8y + 5,7 = 24,1$; b) $(9,2 - x) : 6 = 0,9$
3. Qayiq oqim bo'ylab 2 soat, oqimga qarshi 3 soat suzdi. Agar oqim tezligi 2,2 km/soat, qayiqning o'z tezligi esa 11,3 km/soat bo'lsa, qayiq hammasi bo'lib qancha yol bosgan?
4. To'g'ri to'rtburchakning bir tomoni 56 sm, ikkincha tomoni esa 4 marta kichik bo'lsa, uning perimetri va yuzini toping.
5. Ifodaning qiymatini toping: $(23,79 : 7,8 - 6,8 : 17) \cdot 3,04 - 2,04 \cdot 0,85$

2-VARIANT

1. Birlik kesmasi daftar katakchasining uzunligiga teng bo'lgan son nurini chizing. Shu nurda 8, 12, 4, 21 sonlarga mos nuqtalarni belgilang.
2. Tenglamani yeching: a) $9x + 3,9 = 31,8$; b) $(y - 1,8) : 9 = 0,8$
3. Teploxod oqimga qarshi 2,4 soat va oqim bo'ylab 3,2 soat suzdi. Agar daryo oqimining tezligi 3,3 km/soat, teploxodning o'z tezligi esa 42 km/soat bo'lsa, teploxod hammasi bo'lib qancha yol bosgan?
4. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 18 sm, eni esa bo'yidan 3 marta katta bo'lsa, uning perimetr va yuzini toping
5. Ifodaning qiymatini toping: $(15,36 - 4,36 \cdot (20,74 : 6,8 - 7,6 : 19)) \cdot 0,25$

IV TOPSHIRIQ

1-VARIANT

1. Birlik kesma uzunligini daftarning uchta katakchasining uzunligi deb olib, sonlar nurini chizing. Unda 2, 6, 8, 4 sonlarga mos nuqtalarni belgilang.
2. Tenglamani yeching: $1,7x + 21 + 3,1x = 75$
3. 3 kg kartoshka va bir bosh karam uchun 3600 so'm to'landi. Agar bir bosh karam 600 so'm bo'lsa, bir kg kartoshka 1 necha so'm bo'ladi?
4. Agar xonaning eni 3,8 m, uzunligi esa enidan 0,7 m ga katta va balandligi uzunligidan 1,5 marta kichik bo'lsa, xonaning hajmini toping.
5. Amalni bajaring: $(3,8 \cdot 1,75 : 0,95 - 1,02) : 2,3 + 0,4$

2-VARIANT

1. Birlik kesma uzunligini daftarning ikkita katakchasining uzunligi deb olib, sonlar nurini chizing. Unda 3, 12, 7, 4 sonlarga mos nuqtalarni belgilang.

2. Tenglamani yeching: $11 + 2,3y + 1,3y = 38$

3. 4 stakan sharbat va bitta shokolad uchun 5000 so‘m to‘landi. Agar shokolad 3000 so‘m bo‘lsa, bir stakan sharbat necha so‘m turadi?

4. Agar xonaning uzunligi 5 m, eni esa uzunligidan 1,64 m kichik va balandligi enidan 1,2 marta kichik bo‘lsa, xonaning hajmini toping

5. Amalni bajaring: $(11,28 + 3,4 : 0,85 \cdot 1,55) : 4,6 - 0,8$

V TOPSHIRIQ

1-VARIANT

1. To‘g‘ri chiziq bo‘ylab 10 ta daraxt ko‘chati ekilgan va har bir yonma-yon daraxt ko‘chatining oraliq masofasi 90 dm ga teng. Birinchi va oxirgi daraxt ko‘chati oralig‘idagi masofani toping.

2. Tenglamani yeching: a) $5,9y + 2,3y = 27,88$; b) $(x - 3,25) \cdot 3,6 = 1,62$

3. Birinchi savatda ikkinchi savatga nisbatan 4 marta ko‘p olcha bo‘lgan. Agar ikkala savatda 32,5 kg olcha bo‘lsa, har birida qanchadan olcha bo‘lgan?

4. To‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi yer maydonining yuzi 30 ga teng. Agar yer maydonining uzunligi 3 km bo‘lsa, enini toping.

5. Amalni bajaring: $7\frac{5}{21} - \left(2\frac{7}{21} + 3\frac{4}{21}\right) - \left(9\frac{2}{21} - 8\frac{4}{21}\right) + 4\frac{6}{21}$

2-VARIANT

1. O‘quvchilar yo‘l yoqasiga to‘g‘ri chiziq bo‘ylab 25 ta daraxt ko‘chati ekdilar. Har bir yonma-yon daraxt ko‘chatining oraliq masofasi 600 dm ga teng. Birinchi va oxirgi daraxt ko‘chati oralig‘idagi masofani toping.

2. Tenglamani yeching: a) $4,8y + 3,7y = 11,9$; b) $(4,5 - x) \cdot 5,8 = 8,7$

3. Ikkita xaltaga 3,3 kg un solingan. Agar birinchi xaltada ikkinchisiga nisbatan 2 marta ko‘p un bo‘lsa, har biriga qanchadan un solingan?

4. To‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi yer maydonining yuzi 40 ga teng. Agar yer maydonining uzunligi 2 km bo‘lsa, enini toping.

5. Amalni bajaring: $11\frac{3}{19} - \left(3\frac{7}{19} + 6\frac{4}{19}\right) - \left(2\frac{2}{19} - 1\frac{7}{19}\right) + 8\frac{1}{19}$

РУССКИЙ ЯЗЫК

5 КЛАСС

Переводные экзамены в 5 классах школ с узбекским и другими языками обучения проводятся в устной форме. Экзаменационный материал состоит из 25 билетов. В каждом билете по два задания.

При помощи первого задания проверяются и оцениваются знания учеников по изученным материалам, их умения читать и пересказывать, соблюдая правила произношения и интонации, определяются умения выделить главную мысль прочитанного текста и навыки выражения своих рассуждений на русском языке, выполнение грамматических заданий к данному тексту.

Второе задание связано с проверкой знаний, умений и навыков выразительного чтения наизусть ранее изученного стихотворения, соблюдая правила произношения и интонации или составления небольшого связного текста в виде рассказа по заданной картине. Картинки отбираются и утверждаются на методическом заседании учителей предметников.

Для классов с углубленным изучением русского языка предполагается третье, дополнительное задание, которое связано с проверкой знаний, умений и навыков по изученному языковому материалу. Проверяются следующие элементы знаний, навыков и умений:

- знания изученного лексического и грамматического материала;
- навыки употребления лексического материала и грамматических форм в типовых конструкциях;
- умения составления связного, логически и грамматически правильно построенного самостоятельного высказывания по данной теме.

Объем текста высказываний в 5 классе – 4-5 предложений (20–25 слов).

Критерии оценки первого задания

№	Критерий оценок	Баллы
1	Ученик грамотно прочитал данный текст. Подробно и с выражением передал содержание. Правильно выполнил задания к тексту, указанные в билете. Сумел показать требуемые знания, умения и навыки.	5
2	Ученик грамотно прочитал данный текст. Были допущены некоторые неточности при пересказе содержания. Дополнительные задания к тексту выполнены без ошибок. Знания, умения и навыки были продемонстрированы в полной мере.	4

продолжение

№	Критерий оценок	Баллы
3	Ученик прочитал текст, допустив ошибки в произношении. Не смог подробно передать содержание текста. Есть пробелы в приобретенных знаниях, умениях и навыках.	3
4	Ученик не имеет навыков и умений. Допускает ошибки при чтении. Не может подробно передать содержание прочитанного текста.	2
5	Ученик допускает много ошибок при чтении текста, не может передать его содержание, допускает неточности при выполнении заданий к тексту. Не может показать свои знания, умения и навыки.	1

Критерии оценки второго задания

№	Критерий оценок	Баллы
1	Чётко и выразительно читает стихотворение наизусть и умеет составлять собственные высказывания по картине или по заданной теме.	5
2	Допускает некоторые ошибки в произношении при составлении рассказа по картине и данной учителем теме.	4
3	Допускает ошибки при чтении стихотворения наизусть. При составлении предложений он использует однотипные предложения.	3
4	Допускает много ошибок при чтении наизусть, забывает слова, не понимает смысла прочитанного. При составлении предложений допускает грамматические ошибки.	2
5	Читает с ошибками. Бедный словарный запас. Плохо понимает смысл сказанного.	1

Выполнение каждого задания экзаменационного билета оценивается по пятибалльной системе. За каждый ответ выставляется оценка в соответствии с критериями. Затем полученные баллы суммируются, и выставляется средняя общая оценка. Если оценка спорная, можно задать дополнительный вопрос.

Конверт с экзаменационными заданиями, подготовленные методическими объединениями, запечатанные и проштампованные директором, вскрываются в момент начала аттестации председателем аттестационной комиссии в присутствии всех учеников, о чём составляется акт, о вскрытии конвертов.

На подготовку учащегося отводится 15 минут.

БИЛЕТ 1

1. Прочитайте и перескажите текст А. Лопатина «Мальчик и темнота»
2. Расскажите о своём режиме дня.

БИЛЕТ 2

1. Прочитайте и перескажите текст А. Павловой «Солнышко, похожее на маму».
2. Расскажите, как вы проводите своё свободное время.

БИЛЕТ 3

1. Прочитайте и перескажите текст В. Степанкова «Как светит солнце?».
2. Расскажите о своём любимом виде спорта.

БИЛЕТ 4

1. Прочитайте и перескажите «Сказку о счастливом кактусе». Скажите, где растут кактусы?
2. Составьте рассказ по данным картинкам.

БИЛЕТ 5

1. Прочитайте и перескажите текст «Почему ель зимой и летом одним цветом?» Г. Скребицкого.
2. Расскажите об осени в Узбекистане.

БИЛЕТ 6

1. Прочитайте и перескажите текст М. Скребцовой «Как я ловил рыбу».
2. Расскажите наизусть стихотворение Г. Ладонщикова «Упрямый козлик».

БИЛЕТ 7

1. Прочитайте и перескажите текст «Доброе облако» В. Сабурова. Почему мальчик рассердился на облако.
2. Составьте рассказ о том, как в Узбекистане встречают праздник весны Навруз.

БИЛЕТ 8

1. Прочитайте и перескажите рассказ «Ёжик» В. Осеевой.
2. Назовите ваши любимые зимние игры. Составьте рассказ по картинке «Зима в Узбекистане».

БИЛЕТ 9

1. Прочитайте отрывок из стихотворения «Два кота» С. Маршака. Расскажите о своей кошке или помечтайте о ней, если у вас её нет.
2. Расскажите наизусть стихотворение Е. Мамедова «Сказка про ботинки».

БИЛЕТ 10

1. Прочитайте и перескажите текст «Навруз». Назовите первый день весны.
2. Расскажите о своём друге (подруге).

БИЛЕТ 11

1. Прочитайте и перескажите текст В. Чаплиной «Белка».
2. Составьте рассказ по данным картинкам (на выбор учителя).

БИЛЕТ 12

1. Прочитайте стихотворение А. Усачёва «Я учусь в пятом классе».
2. Какие телепередачи вы любите смотреть. Почему? Расскажите об одной из них подробнее.

БИЛЕТ 13

1. Прочитайте и перескажите текст А. Лопатиной «Кто вырастил ягодку?». Какие ягоды ты знаешь?
2. Расскажите наизусть любимое стихотворение (на выбор).

БИЛЕТ 14

1. Прочитайте и перескажите текст «Кураш — наша гордость». Ответьте на вопросы к тексту.
2. Расскажите наизусть своё любимое стихотворение.

БИЛЕТ 15

1. Прочитайте и перескажите текст «Тополя».
2. Расскажите наизусть стихотворение о весне (на выбор).

БИЛЕТ 16

1. Прочитайте стихотворение «Шутка».
2. Расскажите, какие профессии вам нравятся. Кем вы хотите стать?

БИЛЕТ 17

1. Прочитайте и перескажите текст «В зоопарке». Каких зверей ты знаешь?
2. Расскажите, какие книги вам нравятся? О чём вы любите читать?

БИЛЕТ 18

1. Прочитайте и перескажите отрывок из текста С. Галиевой «Поход».
2. Расскажите наизусть стихотворение Э. Успенского «Разгром».

БИЛЕТ 19

1. Прочитайте и перескажите текст «Встреча с ветеранами труда». Как в вашей школе организуют встречу с ветеранами?
2. Расскажите о профессии своих родителей.

БИЛЕТ 20

1. Прочитайте и перескажите отрывок из басни «Учитель и ученик» (К. Костина). Почему Тяпкин не показал учителю домашнего задания?
2. Расскажите наизусть стихотворение А. Кушнера «Кто разбил большую вазу?».

БИЛЕТ 21

1. Прочитайте стихотворение А. Усачёва «О ногтях».
2. Составьте диалог на тему: «В книжном магазине».

БИЛЕТ 22

1. Прочитайте и перескажите текст А. Павловой «Солнышко, похожее на маму».
2. Составьте рассказ по данному началу: «Скоро у моей сестры (брата) день рождения...».

БИЛЕТ 23

1. Прочитайте и перескажите текст «Четыре бабочки». Как вы думаете, почему птица не увидела бабочек?
2. Расскажите, какие книги вам нравятся? О чём вы любите читать?

БИЛЕТ 24

1. Составьте рассказ по картинке.
2. Прочитайте наизусть отрывок стихотворения И. Марюхина «Солнце на сосне».

БИЛЕТ 25

1. Прочитайте отрывок стихотворения М. Дружинина «Правила дорожного движения».
2. Расскажите, что бы вы делали, если бы у вас оказалась «шапка—невидимка»?

ADABIYOT V SINF

V-sinfda bosqichli nazorat yil davomida adabiyot bo'yicha o'rganilgan mavzular asosida og'zaki tarzda o'tkaziladi.

V sinf o'quvchilari Davlat ta'lim standarti bo'yicha o'quv dasturida berilgan 22 nafar ijodkorning tarjimai holi, ularning asarlari, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalari va boshlang'ich nazariy ma'lumotlar haqida bilimga ega bo'lishlari, matnni ifodali o'qish, matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon eta olish, asar qahramonlari xatti-harakatlariga mustaqil munosabat bildirish ko'nikmasini egallashlari, badiiy asarda tasvirlangan asosiy voqeani, lirik she'rlarda ifodalangan his-hayajonni bir qadar tuyish, maqol, topishmoq, ruboiy, hikoya, qasida haqida dastlabki tushunchalarni bilishlari, o'quv dasturida tavsiya etilgan 6-7 she'riy asarni yodlash malakasiga ega bo'lishlari belgilangan.

Shunga asosan bosqichli nazorat uchun savollar o'qib-o'rganilgan asarlar, nazariy ma'lumotlar hamda yod olingan asarlar bo'yicha ikki qismdan iborat qilib tuzildi. Bunda o'quvchi berilgan asarning mazmunini so'zlashi yoki asar qahramoniga tavsif berishi, nasriy asarni yoddan ifodali aytishi va tahlil qilishi; shuningdek, sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan ro'yhatdagi o'qituvchi tanlagan she'rlardan birini yoddan ifodali aytib, mazmunini tahlil qilishi lozim.

O'quvchilarning javoblari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Ijodkorlarning asarlari mazmunini tushungan bo'lsa, fikrlarini asardan parcha keltirib isbotlasa, nutqi aniq, lo'nda va ravon bo'lsa, asar va uning qahramonlariga mustaqil munosabat bildirsa, nazariy ma'lumotlarni bilsa, fikrini o'z darajasida mustaqil bayon qilsa, nasriy yoki she'riy matnni yoddan ifodali o'qisa, mazmunini tahlil qilsa — **5 ball** qo'yiladi.

2. Ijodkorlarning asarlari mazmunini tushungan bo'lsa, nutqi aniq, lo'nda va ravon bo'lsa, asar va uning qahramonlariga munosabat bildirsa, nazariy ma'lumotlarni bilsa, fikrini mustaqil bayon qilsa, nasriy yoki she'riy matnni yoddan ifodali o'qisa, asar mazmunini to'liq ifodalashga harakat qilsa — **4 ball** qo'yiladi.

3. Asar mazmunini tushungan bo'lsa, asar qahramonlariga munosabat bildirsa, nazariy ma'lumotlar bo'yicha fikrini bayon qilishda qiynalsa, nasriy va she'riy matnni o'qishda talaffuz me'yorlari biroz buzilsa — **3 ball** qo'yiladi.

4. Asar haqida to'liq tushunchaga ega bo'lmasa, nazariy ma'lumotlar bo'yicha fikrini bayon qilishda qiynalsa, nasriy yoki she'riy matnni o'qishda nutq me'yorlari buzilsa, fukrlarini mustaqil, ijodiy bayon etolmasa – **2 ball** qo'yiladi.

5. Asar bo'yicha umumiy ma'lumotnigina bilsa, asar qahramonlari haqida tushunchaga ega bo'lmasa, nasriy yoki she'riy matnni talab darajasida o'qimasa, fukrlarini mustaqil bayon etolmasa, matnni yoddan o'qish ko'nikmasini egallamagan bo'lsa – **1 ball** qo'yiladi.

BILETLAR

1-BILET

1. Erkin Vohidovning «Nido» dostonidan parchani ifodali o'qing, bola kechinmalari asosida urush dahshatlariga baho bering.

2. Asqad Muxtorning «Hafta» she'ridagi «Dushanba» qismini o'qing, tahlil qiling.

2-BILET

1. Alisher Navoiyning «She'r bilan durroj» hikoyatini ifodali o'qing, undagi yolg'onning qanday natijaga olib kelganligi haqida gapiring.

2. «Oygul bilan Baxtiyor» dostonidan parchani yoddan ayting.

3-BILET

1. «Uch og'a-ini botirlar» ertagidagi to'ng'ich botirning sizga yoqqan sifatleri haqida gapiring.

2. Usmon Nosirning «Gulzor – chaman» she'rini ifodali o'qing, tahlil qiling.

4-BILET

1. «Yoshlik ayyomining ilk bahori» asaridagi Alisher timsoliga tavsif bering.

2. Ezopning «Kiyik bilan tokzor» masalida qanday fikr ifodalanganligi haqida gapiring, masalni tahlil qiling.

5-BILET

1. Alisher Navoiyning yoshligi haqida gapiring, sizning yoshingizda u qanday sifatlarga ega bo'lgan? Prezident Islom Karimov unga qanday baho bergan?

2. A.Oripovning «O'zbekiston» she'ridan parchani yoddan ayting va tahlil qiling.

6-BILET

1. «Dunyoning ishlari» qissasidagi «Gilam paypoq» hikoyasida ifodalangan fidoyi ona va uning farzandiga bo'lgan mehri haqida gapiring

2. Mirtemirning «Qishlog'im» she'rini ifodali o'qing, tahlil qiling

7-BILET

1. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» asarida ifodalangan to'g'rilik va egrilik haqida gapiring.
2. Mirtemirning «Shudring» she'rini ifodali yoddan ayting.

8-BILET

1. Muqimiyning «Sayohatnoma» she'ridan parchani ifodali yod ayting, tahlil qiling.
2. Ezopning hayoti va ijodi haqida gapiring. Uning qaysi masalini yoqtirasiz? Nima uchun?

9-BILET

1. Maqsud Shayxzodaning «Iskandar Zulqarnayn» dostonida yolg'on haqida qanday fikr bildirilgan? Siz nima deb o'ylaysiz?
2. Usmon Nosir «Yur, tog'larga chiqaylik» she'rini ifodali o'qing, taassurotingizni ayting.

10-BILET

1. Hamid Olimjon. «Oygul bilan Baxtiyor» ertagidagi Oygul qanday qiz, uni tavsiflang, undagi qaysi sifatlar sizga yoqdi? Nima uchun?
2. Oybekning «Fonarchi ota» hikoyasidagi bolalar qaysi qilmishlari uchun uyalishdi? Hikoyani tahlil qiling.

11-BILET

1. Mirtemirning «Bulut» she'ridagi tabiat manzaralarini tasvirlang.
2. O'qituvchingiz bergan badiiy asardan parchani ifodali o'qing va tahlil qiling.

12-BILET

1. Oybekning «Bolaning ko'ngli podsho» asaridagi bolaning xatti-harakatlarini tavsiflang.
2. Usmon Nosirning «Yurganmisiz birga oy bilan» she'rini yoddan ayting, tahlil qiling.

13-BILET

1. Nodar Dumbadze. «Hellados» hikoyasidagi Yanguli timsoliga tavsif bering. Xarakter haqida o'zingiz tushuganingizcha gapiring.
2. «Susambil» ertagidagi jonivorlarning ahilligini tahlil qiling.

14-BILET

1. Hans Xristian Andersenning «Bulbul» ertagida ifodalangan haqiqiy va soxta bulbulga qiyosiy tavsif bering.
2. O'zbek xalq maqollaridan 4-5 ta namuna ayting, mazmunini tushuntiring

15-BILET

1. Xalq topishmoqlari va zamonaviy topishmoqlarga misol keltiring, ularni yechishda «jazolash», «shahar» yoki «qishloq» berish nimani anglatishi haqida gapiring.

2. Muqimiyning «Sayohatnoma» asaridan 3-4 bandini yoddan ayting, mazmunini gapiring.

16-BILET

1. Navoiyning «Rostlik ta'rifida» she'rida egrilikning yo'li oson, to'g'rilikning yo'li qiyin deyiladi. Siz qaysi yo'lni tanlaysiz? Nima uchun?

2. A.Oripovning «O'zbekiston» she'rini yoddan ayting va tahlil qiling.

17-BILET

1. G'afur G'ulomning «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasidagi o'g'ri timsoliga tavsif bering.

2. «Nido» dostonidan parchani ifodali o'qing, tahlil qiling.

18-BILET

1. Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari» asarining yaratilishi haqida ma'lumot bering. Liliputiya'dagi siyosiy hayotni tasvirlang.

2. O'qituvchingiz bergan badiiy asardan parchani ifodali o'qing, tahlil qiling.

19-BILET

1. Boburning hayoti va ijodi haqida gapiring. Ruboiylaridan 2-3 tasini ifodali yod ayting, tahlil qiling.

2. «Hellados» qanday asar, uning nomi nimani anglatadi? Asardan qanday xulosa chiqardingiz?

20-BILET

1. Xalq maqollaridan namunalar ayting va sharhlang. Maqol nima?

2. Usmon Nosirning «Yurganmisiz birga oy bilan?» she'rini yoddan ayting, tahlil qiling.

21-BILET

1. Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasidagi bola timsoli haqida gapiring. Hikoya haqidagi tushunchangizni so'zlab bering.

2. «Oygul bilan Baxtiyor» dostonidan parchani yoddan ayting, qul Tarlon haqida gapiring.

22-BILET

1. Topishmoq va uning turlari haqida gapiring, 5-6 ta misol keltiring, topishmoqlar nima uchun o'rganiladi deb o'ylaysiz?

2. Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» asaridagi Alisher bilan Husayn o'rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.

23-BILET

1. O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasidagi «Alla» bo'limi haqida gapiring, hikoyachi kechinmalarini qanday tushundingiz?
2. U. Nosirning «Yoshlik» she'rini ifodali o'qing va tahlil qiling.

24-BILET

1. Bobur ruboiylaridan 3-4 tasini ifodali o'qing, mazmunini tahlil qiling. Ruboiy haqida tushunchangizni gapiring.
2. Mirtemirning tarjimonlik faoliyati haqida so'zlab bering.

25-BILET

1. Sa'diyning «Guliston» asaridan parchani ifodali o'qing, asardan olgan taassurotlaringiz haqida gapiring
2. Mirtemirning «Shudring» she'rida tabiat hodisasi nimalarga o'xshatiladi? so'zlab bering.

26-BILET

1. Abdulla Avloniyning «Vatan» she'rini ifodali o'qing, tahlil qiling
2. Asqad Muxtorning «Po'latjon yuz tup ko'chat ekmoqchi» she'rini ifodali o'qing, tahlil qiling.

27-BILET

1. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» asaridagi to'g'rilik va egrilik sifatleri qaysi jismlarga o'xshatilgan, ularni qiyoslab gapiring.
2. Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» asaridagi «Yazd cho'li» hikoyasida Alisherning qaysi fazilatleri ulug'lanadi?

28-BILET

1. Sa'diy Sheroziyning hikmatlaridan 3-4 ta namunalar ayting, tahlil qiling.
2. «Hellados» hikoyasidagi Jamol timsoliga tavsif bering. Hikoya mazmunidan qanday xulosa chiqardingiz? gapiring.

29-BILET

1. Antuan de Sent Ekzyuperi. «Kichkina shahzoda» asaridagi Kichkina shahzoda haqidagi fikrlaringizni gapiring.
2. Mirtemirning «Qishlog'im» she'rini ifodali o'qing, tahlil qiling.

30-BILET

1. Sa'diy Sheroziyning «Bo'ston» asaridan «Ayb qidirmaslik haqida» bo'limini ifodali o'qing, tahlil qiling.
2. «Gulliverning sayohatlari» asaridagi mitti odamlarning Gulliverga bo'lgan munosabatlari haqida gapiring. Asar qaysi jihatlari bilan sizga yoqdi?

6 -SINF ОНА ТИЛИ

Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. Shu maqsadga ko'ra joriy o'quv yilida 6-sinfda ona tilidan bosqichli imtihon yozma ish, ya'ni diktant shaklida o'tkaziladi. Diktant o'quvchilarning savodxonligini tekshirish va oshirish, bilimlarini mustahkamlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Diktantga quyidagi talablar qo'yiladi:

– yozma nazoratning bu turi o'quv yili davomida o'rganilgan mavzular yuzasidan bilim va malakalarni mustahkamlashga hamda tekshirishga xizmat qilishi;

– diktant uchun o'tilgan mavzularga to'la muvofiq keladigan va olingan bilimlarni sinash imkoniyatini beradigan material tanlanishi;

– tanlangan matn o'quvchiga ma'lum darslikdan olinmay, imkon qadar ijodiy bo'lishi, mustaqil o'qilgan yoki o'quvchiga notanish bo'lgan asarlardan olinib, ta'limiy, tarbiyaviy mohiyatga ega bo'lishi lozim.

Diktant matni 6 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo'lib, bir o'quvchi 6 ta variantdan (konvertidan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertidagi matn sarlavhasi doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan diktant matni bir marta o'qib eshittiriladi. Matndagi murakkab so'zlar doskaga yozib qo'yiladi. Diktant matni o'qituvchi tomonidan o'qib turib (diktovka usulida) yozdirib boriladi.

Diktantni baholashda quyidagicha mezonlarga amal qilinadi:

«5» ball: a) mutlaqo xatosiz yozilgan; b) qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki bitta ishorat xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi.

«4» ball: ikkita imlo va ikkita ishorat xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. Xatolar nisbati o'zgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori to'rttadan, imlo xato esa ikkitadan oshmasligi kerak.

«3» ball: to'rtta imlo hamda to'rtta ishorat xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. Xatolar nisbati 3 imlo, 5 ishorat xato va boshqa ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin. Ammo imlo xato miqdori 4 tadan oshmasligi shart.

«2» ball: yettitagacha imlo va 7 ta ishorat xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. Xatolar miqdori 15 tadan ortsa, «1» ball qo'yiladi.

Eslatma: 1. Diktandagi xatolar nisbatan turlicha ko‘rinishda bo‘lishiga qaramay, baholashda imlo xatolar miqdori asosiy chegara sanaladi.

2. Agar diktandagi tuzatishlar miqdori beshtadan ortiq bo‘lsa, baho bir ballga pasayadi.

3. Agar diktantda uch va undan ortiq tuzatish bo‘lsa, «5» ball qo‘yilmaydi. Matn hajmi 110–120 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

Diktant yozish uchun 1 astronomik soat (60 daqiqa) beriladi.

DIKTANT MATNLARIDAN NAMUNA

VATANGA MUHABBAT

Vatan! Bu so‘z bizning qalbimizga ona allasidan, uning qaynoq muhabbatidan singadi. Agar ma`lum bir muddat o‘z uyimizdan sal olisroqda yashab qolsak, ko‘nglimiz g‘ash bo‘laveradi. Har qanday ko‘ngilochar narsalar ham bizni quvontira olmaydi. Negaki, biz o‘z go‘shamizni qo‘msay boshlaymiz. Bu Vatanni sevishning bir ko‘rinishi emasmi?! Vatanga muhabbat, uni ardoqlash, ona – Vatanga tegishli bo‘lgan har bir narsani muqaddas bilish, o‘zini shu Vatan kengliklariga daxldor deb his qilish haqiqiy insonlarga xos fazilatdir.

Bu aziz kunlarga xalqimiz osonlikcha erishgani yo‘q. Begunoh kishilarning muborak ruhlarini shod etmoq uchun Vatanimizning har bir fuqarosi qo‘lidan kelganicha xayrli ishlarni bajarishi shart. Shukrlar bo‘lsinki, mustaqillik degan buyuk ne`matga erishgach, buyuk kelajak barpo etishga kirishildi. Buning uchun esa mustaqilligimizni yanada mustahkamlash uchun intilishimiz kerak.

(114 so‘z. «Dillarda vatan madhi» to‘plamidan)

SUV – MUQADDAS NE‘MAT

Suv – yerda eng ko‘p tarqalgan suyuqlik hisoblanadi. U asosan sayyoramizning uch butun o‘ndan ikki qismini egallagan. Dengiz va okeanlardan jamlangan. Ko‘l va daryolar, Arktika va Antarktida muzlari ham suvdan iborat. Suv havoda bug‘ ko‘rinishida ham bo‘ladi. Hatto odam tanasining deyarli 2/3 qismi ham suvdan tashkil topgan.

Yer kurrasidagi umumiy suv miqdori o‘zgarmaydi. Okean, dengiz, daryo va ko‘l yuzidagi suvlar bug‘lanib, bulutlar hosil bo‘ladi. Ular esa yomg‘ir yoki qor bo‘lib yog‘ib, yana yer va okeanlarga tushadi.

Yer yuzida aholi iste‘mol qiladigan toza suv miqdori borgan sari kamayib bormoqda. Odamlar sanoat ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan suvdan ko‘proq foydalanmoqdalar. Aksariyat hollarda korxonalar chiqindilari bilan suv ifloslanmoqda. Muhandislar suvni tozalashning turli usullarini topmoqdalar. Mamlakatimizda chiqindilar va oqava suvlarni suv havzalariga oqizish taqiqlangan. Har doim esingizda bo‘lsin: suvni asrang, uni isrof qilmang.

(121 so‘z. «Bolalar ensiklopediyasi»dan)

OVQATLANISH ODOBI

Taom halol va pok bo'lishi ovqatlanishning birinchi shartidir. Ovqatlanishga o'tirishdan oldin qo'llar xoh toza, xoh kir bo'lsin, ularni yuvish kerak. Ovqatlanib bo'lgandan so'ng ham qo'llarni yuvmoq zarur. Taomdan oldin qo'l yuviladi, ammo uni libosga surtmoq tibbiy jihatdan noma'quldir. Dasturxon oldida yonboshlab olib ovqatlanish islom odobiga zid. Nonni ham, choyni ham, oshni ham faqat o'ng qo'l bilan yemoq kerak. Ko'pchilik bo'lib osh yeyayotganda o'z oldidan olib eyiladi, ammo birdaniga oshning o'rtasidan boshlanmaydi.

Ovqat uch barmoq bilan yeyiladi, yoki zarurat bo'lganda qolgan barmoqlarni ham qo'shish mumkin.

Nonga bo'lgan hurmatni alohida ta'kidlash lozim. Non ikkala qo'llab ushatiladi. Nonni tishlab emas, balki og'ziga loyiq qilib sindirib yeyish odobdandir. Dasturxonga to'kilib qolgan ushoq va guruchlarni terib yeyish baraka boisidir.

(115 so'z. «Insoniy axloq asoslari»dan)

IFTIXOR

Milliy g'urur – bu milliy iftixordir. Milliy iftixor millat o'zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma'naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqur o'rin oladi.

Milliy birdamlik tuyg'usi – milliy ongning negizidir. Milliy bardamlik yetuk va mukammal ma'naviy fazilat sifatida milliy ongi rivojlangan millatlarda to'laroq namoyon bo'ladi.

Milliy iftixor millat ma'naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Milliy istiqloq natijasida erishilgan va erishilajak iqtisodiy va ma'naviy yutuqlar ko'paygani sari O'zbekiston bilan faxrlanish hissi – milliy iftixor shunchalar kuchayib boraveradi. Milliy iftixor mamlakatimizning barcha fuqarolari uchun birdek tegishli va uning yuksala borishi uchun barcha fuqarolar barobar mas'uldirlar.

(116 so'z. «Gazetadan»)

ROST GAPIRGAN YETAR NIYATGA

O'zbek xalq og'zaki ijodida rostgo'ylik yuksak insoniy fazilat sifatida bag'oyat ulug'lanadi, yolg'onchilik esa qattiq qoralanadi. Rostgo'ylik, ya'ni to'g'ri so'zlash kishini murod-maqсадiga yetkazishi, unda olijanoblik, tantilik, xushfe'llik, nozikta'blik, mardlik, xaqgo'ylik kabi xislatlarning shakllanishida, atrofdegilarga nisbatan qalbdagi ishonch, hurmat, e'tiqod va sadoqatni kamol toptirishdagi roli alohida uqtiriladi. Yolg'onchilik kishini beburd qilib, uning obro'-nufuziga putur yetkazadi, kishiga nisbatan ishonchni yo'qotadi, oqibatda, uning yuziga qora tortilib, butunlay subutsiz qilib qo'yadi. Subutsiz kishi el nazaridan qoladi. Xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari

asosida yuzaga kelgan yolgʻonchilik va rostgoʻylik haqidagi xulosalarida bu yaqqol namoyon boʻladi.

Barcha yaxshi fazilatlar kabi rostgoʻylik ham qonimizga buvilarimizning ertak-afsonalariyu, onamizning allalari, otamizning pand-nasihatlariryu, ustozlar oʻgitlari orqali singadi. Ularga amal qilish eng olijanob fazilat.

(117 soʻz. Malik Murodov «Oltin sandiq ochildi» kitobidan)

VIJDON

Vijdon— bu kishining kundalik faoliyati, qilmishi, feʼl-atvori uchun oila, jamoat, jamiyat va Vatan oldida maʼnaviy masʼuliyat his etishidir. Shu yuksak axloqiy tushuncha shaxsni ijobiy xatti-harakatlarga undab va shunga moyil qilib, oʻz faoliyatiga oʻzi baho berishga olib keladi. Vijdonli kishi nohaq, adolatsiz ishlardan gʻazabga keladi, bularga qarshilik bildiradi; oʻz faoliyatining yaxshi tomonlaridan qanoatlanib, xursand boʻlsa, yomon tomonlaridan norozi boʻlib, ruhan eziladi, yaʼni vijdon azobiga uchraydi. Vijdon – tugʻma xislat deyuvchilar ham bor. Vijdon – kishilarning yashab turgan sharoitiga, olgan taʼlim-tarbiyasiga bogʻliq, deb hisoblovchilar ham mavjud. Biz oʻzimizning turmush tajribamizda aslida vijdonsiz kimsaning voyaga yetib, oʻqimishli, katta odam boʻlib yetishganidan keyin vijdonli boʻlib qolganini uchratmadik. Vijdon koʻp yoki oz bilimlilikka, boy yoki kambagʻal boʻlishlikka, oddiy yoki mashhurlikka bogʻliq emas.

(118 soʻz. A.Ibrohimov «Yorugʻlugʻ» kitobidan)

6-SINF

TARIX

6-sinf «Tarix» fanidan bosqichli nazorat imtihoni o'tkazish bo'yicha tavsiya etilayotgan biletlar davlat ta'lim standartlari talablari va o'quv dasturi asosida tayyorlangan.

Imtihon topshirish jarayonida o'quvchi o'z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin.

Bosqichli nazorat imtihonida o'quvchilar uchta savolga javob berishlari kerak bo'ladi. Imtihon o'tkazish uchun tavsiya etilayotgan biletning 2 tasi mamlakatimiz tarixining qadimgi davriga taalluqli bo'lib, qolgan bittasi qadimgi dunyoning eng qadimgi davrlari tarixiga doir ma'lumotlar asosida tuzilgan.

O'quvchi biletlardan bittasini tanlab oladi va 15 daqiqa tayyorgarlik ko'rgandan so'ng og'saki javob beradi. 6-sinf «Tarix» fanidan bosqichli nazorat imtihoni uchun taklif etilayotgan mazkur bilet savollariga maktab metod birlashmasi qarori bilan takliflar, tuzatishlar va 15%gacha qo'shimchalar kiritilishi va chuqurlashtirilgan sinflar uchun biletlar soni ko'paytirilishi mumkin.

O'quvchilarning har bir javobini baholashda quyida berilgan 5 ta mezon asosida alohida ballar qo'yiladi:

- tarixiy hodisalarning joyini aniqlab, tarixiy xaritadan voqea sodir bo'lgan joyni topa olishi;
- tarixiy voqea va hodisalarni taqqoslab va qiyoslab, xulosa chiqara olishi;
- tarixiy hodisa va jarayonni og'zaki ravon nutqda bayon qila olishi;
- tarixiy atamalarning mazmunini bilishi va o'z o'rnida to'g'ri ishlata olishi;
- tarixiy voqealarning aniq tarixiy davri yoki sodir bo'lgan sanasini to'g'ri ayta olishi.

1-BILET

1. O'rta Osiyoda bronza davri dehqonchilik manzilgohlari haqida nima bilasiz?

2. Qadimgi Misrda nazariy bilimlarning vujudga kelishi haqida malumot bering.

3. Aleksandr Makedonskiy tomonidan Maroqandaning egallanishini soʻzlab bering.

2-BILET

1. Oʻzbekistonning qadimgi aholisining etnik tarkibi va joylashuvi haqida soʻzlab bering.

2. Qadimgi Yunonistonda teatrning vujudga kelishi haqida nima bilasiz?

3. Oʻrta Osiyo tarixi boʻyicha qadimgi yozma manbalar haqida gapirib bering.

3-BILET

1. Oʻrta Osiyoda urugʻchilik jamiyatining xususiyatlarini aytib bering.

2. Qadimgi Yunonistondagi Solon islohotlarini bilasizmi?

3. Oʻrta Osiyoda ilk temir davrining oʻziga xos xususiyatlarini aytib bering.

4-BILET

1. Oʻrta Osiyoda mezolit davri manzilgohlari haqida gapirib bering.

2. Miloddan avvalgi ming yilliklarda Xitoy madaniyati haqida malumot bering.

3. Oʻrta Osiyoning qadimgi shaharlariga xos umumiy belgilarni soʻzlab bering.

5-BILET

1. «Avesto» – Oʻzbekiston tarixi boʻyicha eng qadimgi yozma manba ekanligini soʻzlab bering.

2. Misr davlatining tashkil topishi haqida nima bilasiz?

3. Oʻzbekistonda neolit davri manzilgohlarini aytib bering.

6-BILET

1. Oʻzbekistonning eng qadimgi shaharlari haqida gapirib bering.

2. Ahamoniylar davlatining tashkil topishi haqida malumot bering.

3. Xitoy sayyohi Chjan Szyanning Oʻrta Osiyoga sayohati haqida nima bilasiz?

7-BILET

1. Zardushtiylikda inson umrining mazmuni haqida nima aytilgan?

2. Qadimgi Misrda piramidalar qurilishi haqida soʻzlab bering.

3. Forslarga qarshi Margʻiyonada koʻtarilgan qoʻzgʻolon haqida soʻzlab bering.

8-BILET

1. Eneolit davri haqida malumot bering.

2. Yunon koloniyalarining tashkil topishi.

3. Kushon davlati xoʻjaligining taraqqiyoti haqida soʻzlab bering.

9-BILET

1. Zardushtiylikning vujudga kelishi haqida malumot bering.
2. Miloddan avvalgi I ming yillikda Hindiston.
3. Ahamoniylarning O'rta Osiyo xalqlari ustidan hukmronligining o'rnatilishi.

10-BILET

1. O'rta Osiyoda Yunon-Baqtriya podshohligining tashkil topishi haqida aytib bering.
2. Ossuriya podshohligining yuksalgan davri haqida so'zlab bering.
3. Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarini so'zlab bering.

11-BILET

1. Spitamenning qahramonligi haqida malumot bering.
2. Doro I islohotlari haqida nima bilasiz?
3. O'rta Osiyoda eneolit-bronza davrining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlab bering.

12-BILET

1. O'rta Osiyoda so'nggi paleolit davrining o'ziga xos xususiyatlari haqida malumot bering.
2. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi haqida nima bilasiz?
3. O'rta Osiyo Salavkiylar davlati tarkibida.

13-BILET

1. O'rta Osiyoda davlat vujudga kela boshlashining o'ziga xos xususiyatlari haqida aytib bering
2. Qadimgi Mesopotamiyaning tabiiy sharoiti haqida so'zlab bering.
3. Qadimgi Dovon davlatining vujudga kelishi haqida malumot bering.

14-BILET

1. Qang' davlatining vujudga kelishidagi shart-sharoitlar haqida ma'lumot bering.
2. Qadimgi yunon afsonalarini haqida ma'lumot bering.
3. Zardushtiylik ta'limotida nimalar yaqida aytilgan?

15-BILET

1. Kushon podshohligining tashkil topishi haqida so'zlab bering.
2. Spartak qo'zg'oloni va uning ahamiyati haqida so'zlab bering.
3. Ahamoniylar davrida O'rta Osiyoda davlat boshqaruvi haqida malumot bering.

16-BILET

1. Kushon davlati yodgorliklari haqida nimalar bilasiz?
2. Qadimgi Misrda diniy e'tiqod haqida malumot bering.
3. «Buyuk ipak yo'li» ning vujudga kelishi haqida so'zlab bering.

17-BILET

1. Mil.avv. I mingyillikda O'rta Osiyo xalqlarining harbiy san'ati.
2. Yuliy Sezar davrida Rim davlati haqida malumot bering.
3. «Buyuk ipak yo'li»ning ahamiyati haqida so'zlab bering.

18-BILET

1. Miloddan avvalgi I-ming yillikda qadimgi Xorazm davlati manzilgozlari haqida so'zlab bering.
2. Qadimgi dunyoning yetti mo'jizasi haqida malumot bering.
3. «Buyuk ipak yo'li»dan oldin mavjud bo'lgan savdo yo'llari haqida bilasizmi?

19-BILET

1. Miloddan avvalgi II-I asrlarda qadimgi Dovon va Xitoy munosabatlari qanday bo'lgan?
2. Misr iyerogliflarining kashf etilishi.
3. Xammurapi qonunlari va uning ahamiyati haqida so'zlab bering.

20-BILET

1. Ahamoniy hukmdorlar davrida O'rta Osiyoning rivojlanishini so'zlab bering.
2. Qadimgi Shumerning mixxat yozuvi haqida malumot bering.
3. To'maris jasorati haqida so'zlab bering.

21-BILET

1. Demetriy hukmronligi davrida Yunon-Baqtriya podsholigi haqida so'zlab bering.
2. «Ko'p podsholiklar davri»da Xitoy haqida so'zlab bering.
3. O'rta Osiyoda paydo bo'lgan ilk diniy tasavvurlar haqida nima bilasiz?

22-BILET

1. Teshiktosh manzilgohi va uning jahon tarixidagi ahamiyati haqida so'zlab bering.
2. Buyuk Xitoy devorining qurilishi haqida malumot bering.
3. O'zbekistonda ilk dehqonchilik manzilgozlari haqida nimalar bilasiz?

23-BILET

1. O'rta Osiyoda ilk qoyatosh rasmlarining paydo bo'lishi haqida malumot bering.
2. Yunon-fors urushlarining sabablarini aytib bering.
3. Kanishka hukmronligi davrida Kushon podsholigi haqida so'zlab bering.

24-BILET

1. Doro I bosqiniga qarshi Shiroq jasorati haqida so'zlab bering.
2. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining boshlanishi haqida so'zlab bering.
3. O'zbekiston hududida paydo bo'lgan dastlabki yozuvlar haqida malumot bering.

25-BILET

1. Kir II ning bosqinchilik yurishlari haqida malumot bering.
2. Qadimgi Yunoniston maktablari haqida malumot bering.
3. Sak va massaget qabilalari va ularning yashagan hududlari haqida so'zlab bering.

BOTANIKA

2011-2012 o'quv yilida «Botanika» fanidan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida 6-sinflarda «Botanika» fanidan bosqichli nazorat imtihoni og'zaki so'rov shaklida o'tkaziladi.

6 sinfda botanika fani yakunlovchi kurs bo'lganligi uchun o'quvchilardan 5-6 sinflar davomida egallagan bilim, ko'nikma va malakalardan tuzilgan savollar asosida 30 ta bilet shakllantiriladi. Har bir biletta o'quvchiga 3 tadan savol beriladi. Savollarning 2 tasi nazariy, 1 tasi amaliy mashg'ulotga oid bo'ladi.

Amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlaridan beriladigan savollar 5-6 sinflarda o'tkazilgan 6 ta laboratoriya mashg'uloti va 3 ta amaliy ishlar asosida tuziladi.

Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Baholar umumlashtirilib o'rtacha baho chiqariladi. Masalan: $5+4+3=12:3=4$

Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezon

№	Baholash mezon	Ball
1	O'rganilayotgan mavzuni batafsil yoritib bersa va tushuntira olsa, tushunchalar to'liq va aniq yoritilsa hamda to'g'ri xulosalansa. Mavzudagi bilim, ko'nikma va malakalarni bilish hajmi 86–100% oralig'ida bo'lsa.	5
2	Berilgan savollarga taaluqli bilim, ko'nikma va malakalarga ta'rif berishda asosan to'g'ri yondoshilgan, lekin izchillik buzilgan, qonuniyatlar va nazariyalar tavsifida qisman noaniqliklar bo'lib, BKMLarni bilish hajmi 71–85% oralig'ida bo'lsa.	4
3	O'rganilayotgan mavzuni tizimli bog'lanishlar va munosabatlar orqali tushuntira olsa, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni bilish hajmi 55–70% oralig'ida bo'lsa.	3
4	O'rganilayotgan mavzuni gapirib bera olsa, ayrim dalillar, qoidalar, qonunlarni qisman eslay olsa, bilim, ko'nikma va malakalarni bilish hajmi 21–54% oralig'ida bo'lsa.	2
5	O'rganilayotgan mavzuga oid ayrim bilimlarni eslay olsa, bilim, ko'nikma va malakalarni bilish hajmi 20% dan oshmasa.	1

Amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlarini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1	Laboratoriya mashg'ulotini bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan holda malakalar to'g'ri va to'liq ochib berilgan, rasm va jadvallar to'g'ri ifodalangan, to'g'ri xulosalangan. Mashg'ulotni bajarish uchun zarur jihozlar to'g'ri tanlangan bo'lsa.	5
2	Mashg'ulotni bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan. Egallagan malakalari asosida tajribalar to'liq bajarilgan, lekin natijalarni ifodalashda juziy xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Mashg'ulotni bajarish uchun zarur jihozlardan mustaqil foydalana olsa.	4
3	Egallagan malakalari asosida mashg'ulotni bajarish ketma-ketligiga to'liq rioya etilmagan. Mashg'ulotni bajarish uchun zarur bo'lgan jihozlar to'liq tanlangan. Ulardan foydalanish ketma-ketligiga rioya qilinmagan.	3
4	Mashg'ulotni bajarish uchun zarur bo'lgan jihozlar to'g'ri tanlanmagan, ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilmagan, mashg'ulotni bajarishga to'g'ri yondashilmagan va xulosalanmagan bo'lsa.	2
5	Jihozlar to'g'ri tanlanmagan, ish noto'g'ri bajarilgan.	1

Amaliy ishlar va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur laboratoriya jihozlari, preparatlar va boshqa materiallar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlanadi.

1-BILET

1. O'simliklarning hayotiy shakllari.
2. Gulning tuzilishi.
3. Mikroskopning tuzilishi.

2-BILET

1. Kuz faslida o'simliklar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlar.
2. To'pgullar.
3. Mikroskop bilan ishlash qoidalari.

3-BILET

1. Hujayra va uning tarkibiy qismi.
2. Gullarning changlanishi.
3. Piyoz po'sti hujayralarining mikroskopda ko'rinishi.

4-BILET

1. Hujayralarning hayotiy faoliyati.
2. Urug'lanish.
3. Chigit tuklarining mikroskopda ko'rinishi.

5-BILET

1. O'simlik to'qimalari.

2. Mevalarning tuzilishi.
3. Barg epidermisidan vaqtinchalik preparat tayyorlash va uni mikroskopda kuzatish.

6-BILET

1. Ildiz turlari.
2. Bir urug'pallali o'simliklar urug'ining tuzilishi.
3. Plakatlar yordamida ildiz tizimlarini tushuntiring.

7-BILET

1. Ildizning ichki tuzilishi.
2. Ikki urug'pallali o'simliklarning urug'i tuzilishi.
3. Barg ichki tuzilishining mikroskopik ko'rinishi.

8-BILET

1. Ildizning o'sishi va nafas olishi.
2. Zuxrasoch qirqqulog'i.
3. Barglarning suv bug'latishini hisoblovchi tajribani tushuntiring.

9-BILET

1. O'g'itlar.
2. Urug'larning unib chiqishi.
3. Parxesh orqali ko'paytirishni tushuntiring.

10-BILET

1. Novda va kurtakning tuzilishi.
2. O'simliklar sistematik birliklari.
3. Kurtakpayvand usulini tushuntiring.

11-BILET

1. O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»ga kiritilgan o'simliklar.
2. Bakteriyalarning tuzilishi.
3. Gerbariy tayyorlash qoidasini tushuntiring.

12-BILET

1. Poyalarning xilma-xilligi.
2. Kasallik paydo qiluvchi bakteriyalar.
3. Gerbariydan foydalanib gul formulasini yozing.

13-BILET

1. Poyaning ichki tuzilishi
2. Mog'or zamburug'larining tuzilishi.
3. Urug'ning nafas olishini kuzatuvchi tajribani izohlang.

14-BILET

1. Piyozbosh.
2. Achitqi zamburug'i.
3. Bir hujayrali suvo'tlaridan preparat tayyorlash va mikroskopda ko'rish.

15-BILET

1. Oddiy va murakkab barglar.
2. Qalpoqchali zamburug'lar.
3. Gerbariylerden foydalanib archa va qarag'ayni taqqoslang.

16-BILET

1. Novdada barglarning joylashishi.
2. Parazit zamburug'lar.
3. Bir urug'pallali va ikki urug'pallali o'simliklar uchun xos xususiyatlarni taqqoslang.

17-BILET

1. Bargning ichki tuzilishi.
2. Lishayniklar haqida umumiy tushunchalar.
3. Gerbariyler va plakatlardan foydalanib to'pgullarni tushuntiring.

18-BILET

1. Barglarning suv bug'latishi.
2. Bir hujayrali suvo'tlar.
3. Xona o'simliklari va plakatlardan foydalanib gulning tuzilishini tushuntiring.

19-BILET

1. Loladoshlar oilasi.
2. Ko'p hujayrali suvo'tlar.
3. Spirogiraning mikroskopda ko'rinishini tushuntiring.

20-BILET

1. O'simliklarning vegetativ ko'payishi.
2. Funariya yo'sini.
3. Gulli o'simliklarning organlarini xona o'simliklari misolida izohlang.

21-BILET

1. Fotosintez jarayonini tushuntiring.
2. Dala qirqbo'g'imi.
3. Achitqi zamburug'idan vaqtinchalik preparat tayyorlash va mikroskopda ko'rish.

22-BILET

1. Archa o'simligi haqida umumiy ma'lumot bering.

2. Ra'nodoshlar oilasi.
3. Xona o'simliklarini ko'paytirish.

23-BILET

1. Qarag'ay o'simligi haqida umumiy ma'lumot bering.
2. Karamdoshlar oilasi.
3. Mikroskopning tuzilishi.

24-BILET

1. Manzarali o'simliklar.
2. Sho'radoshlar oilasi.
3. Mikroskop bilan ishlash qoidalari.

25-BILET

1. Poyaning bo'yiga o'sishi.
2. Gulxayridoshlar oilasi.
3. Piyoz po'sti hujayralarining mikroskopda ko'rinishi.

26-BILET

1. Poyaning eniga o'sishi.
2. Burchoqdoshlar oilasi.
3. Chigit tuklarining mikroskopda ko'rinishi.

27-BILET

1. Poyada oziq moddalarning harakatlanishi.
2. Ituzumdoshlar oilasi.
3. Barg epidermisidan vaqtinchalik preparat tayyorlash va uni mikroskopda kuzatish.

28-BILET

1. Tugunak va ildizpoya.
2. Tokdoshlar oilasi.
3. Piyozboshning tashqi va ichki tuzilishini tushuntiring.

29-BILET

1. Barglarning tashqi tuzilishi.
2. Qovoqdoshlar oilasi.
3. Barg ichki tuzilishining mikroskopik ko'rinishi.

30-BILET

1. Fotosintez jarayonini tushuntiring.
2. Ziradoshlar oilasi.
3. Barglarning suv bug'latishini hisoblovchi tajribani tushuntiring.

Nashr. lits. № 154. 14.08.09. Bosishga 29.02.2012-y.da ruxsat etildi.

Bichimi 60x90 ¹/₁₆. Tayms garniturası. Ofset bosma.

2,0 shartli bosma tobog‘i. 2,25 nashr tobog‘i.

raqamli buyurtma.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi. 100128. Toshkent. Shayxontohur ko‘chasi, 86.

Bizning internet manzil: www.iptdgulom.uz

E-mail: iptdgulom@sarkor.uz